

Date: 13th October-2025

**MAKTABGACHA TA'LIMDA TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-ASOSIY YO'NALISHLARI**

Teshayeva Sarvinoz Jamshidovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

1-bosqich tayanch doktoranti

Email: sarvinozteshayeva1504@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda tinglab tushunish ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy, psixologik va metodik asoslari keng yoritilgan. Tadqiqotda bolaning eshituv faoliyati, nutqiy idroki va kommunikativ rivojlanish jarayonlari o'zaro bog'liqlikda o'rganilgan. Ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyalar – didaktik o'yinlar, media-ta'lim vositalari, interaktiv mashg'ulotlar, hamda individual yondashuv uslublari orqali bolalarda tinglab tushunish malakalari shakllantirildi. Maqola yakunida ishlab chiqilgan metodika maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amaliy qo'llanishi mumkinligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, tinglab tushunish, nutqiy rivojlanish, didaktik o'yin, pedagogik texnologiya, media-ta'lim, kommunikativ kompetensiya.

**НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ
ПОНИМАНИЯ НА СЛУХ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА**

Тешаева Сарвиноз Джамшидовна

Бухарский государственный педагогический институт

Докторант базовой докторантуры 1-го курса

Email: sarvinozteshayeva1504@gmail.com

Аннотация: В статье подробно раскрыты теоретические, психологические и методические основы формирования навыков понимания на слух у детей дошкольного возраста. В исследовании изучается взаимосвязь слуховой активности ребёнка, его речевого восприятия и коммуникативного развития. Разработанные педагогические технологии – дидактические игры, средства медиаобразования, интерактивные занятия и индивидуальные подходы – способствовали формированию у детей навыков понимания услышанного. В заключении статьи обоснована практическая применимость предложенной методики в учреждениях дошкольного образования.

Ключевые слова: дошкольное образование, понимание на слух, речевое развитие, дидактическая игра, педагогическая технология, медиавоспитание, коммуникативные навыки.



Date: 13th October-2025

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING
LISTENING COMPREHENSION SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN

Teshayeva Sarvinoz Jamshidovna

Bukhara State Pedagogical Institute

1st-year Doctoral Student (PhD Researcher)

Email: sarvinozteshayeva1504@gmail.com

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the theoretical, psychological, and methodological foundations for developing listening comprehension skills in preschool children. The study explores the interrelation between children's auditory perception, speech comprehension, and communicative development. The developed pedagogical technologies—didactic games, media-based learning tools, interactive activities, and individualized approaches—were used to enhance children's listening comprehension abilities. The article concludes that the proposed methodology can be effectively implemented in preschool educational institutions.

Keywords: preschool education, listening comprehension, speech development, pedagogical technology, didactic games, media education, communicative competence.

Kirish

Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanida nutqiy rivojlanish masalalari inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish bilan chambarchas bog'liq. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasida bolalarda muloqot, tafakkur va nutq madaniyatini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Ayniqsa, maktabgacha yoshda tinglab tushunish ko'nikmasining rivoji bolaning psixik, hissiy va aqliy yetukligi uchun zarur asosdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 5–6 yoshli bolalar ko'pincha tinglayotgan hikoya yoki ertakning asosiy mazmunini tushunishda, voqealar ketma-ketligini eslab qolishda va qahramonlarning hissiyotini tahlil etishda qiyinchiliklarga duch keladi. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun ta'lim jarayonida innovatsion, interfaol va bolaga yo'naltirilgan metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tinglab tushunish ko'nikmasining shakllanishi Vygotskiy, Piaget, Chomsky, Montessori, Leontyev kabi olimlarning psixolingvistik va pedagogik qarashlariga tayanadi. Vygotskiy fikricha, bola nutqni o'zlashtirish jarayonida ijtimoiy muloqot asosida faol rivojlanadi. Piaget esa tinglash va tushunish jarayonini kognitiv rivojlanish bosqichlari bilan bog'laydi.

Tinglab tushunish jarayonining muhim tarkibiy qismlari:

1. **Eshituv e'tiborini shakllantirish;**
2. **Mazmunni tahlil qilish va asosiy g'oyani anglash;**
3. **Xotirada saqlab qolish va qayta hikoyalash;**
4. **Baholash va emotsional javob bildirish.**



Date: 13th October-2025

Shu jarayonlarda bolalar nafaqat nutqiy malakalarni, balki tafakkur, xotira, diqqat va ijodiy fikrlashni ham rivojlantiradilar.

Tadqiqotda tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish uchun kompleks metodik tizim ishlab chiqildi. U quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- **Didaktik o'yinlar:** "Ovozni top", "Qahramonni tani", "Davom ettir", "Kim gapirdi?" kabi o'yinlar bolalarda eshituv e'tiborini kuchaytiradi.
- **Media-ta'lim:** audio va video ertaklar, raqamli ilovalar, QR-kodli hikoyalar orqali multimedaviy o'qitish amalga oshiriladi.
- **Muloqotli mashg'ulotlar:** savol-javoblar, rolli o'yinlar, interfaol hikoyalash orqali bolalarda muloqot madaniyati shakllanadi.
- **Individual yondashuv:** har bir bolaning yosh, psixologik va eshituv xususiyatlariga mos topshiriqlar ishlab chiqiladi.
- **Integrativ metodlar:** tinglab tushunish mashg'ulotlari musiqa, rasm chizish, harakatli o'yinlar bilan uyg'unlashtiriladi.

Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish maktabgacha ta'limning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Tadqiqot asosida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

1. Tinglab tushunish bolaning muloqotga kirishish, fikrni tahlil qilish va ifodalash malakalarini shakllantiradi.
2. Pedagogik texnologiyalarni kompleks qo'llash (o'yin, media, interfaol metodlar) samaradorlikni oshiradi.
3. Tarbiyachilar uchun maxsus metodik qo'llanma va trening dasturlari joriy etilishi lozim.
4. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutqni rivojlantirish mashg'ulotlariga psixolog, defektolog va logoped ishtirokini kengaytirish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Выготский Л.С. *Воображение и творчество в детском возрасте*. – М.: Педагогика, 1991.
2. Piaget J. *The Language and Thought of the Child*. – New York: Routledge, 2001.
3. Chomsky N. *Aspects of the Theory of Syntax*. – MIT Press, 1965.
4. Montessori M. *The Montessori Method*. – New York: Schocken Books, 1964.
5. Gordon T. *Teacher Effectiveness Training*. – New York: Crown Publishers, 2003.
6. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim agentligi. *2024-yilgi metodik tavsiyalar to'plami*. – Toshkent, 2024.

